

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MA'NAViy-AXLOQiy FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH**Olimjonova O'g'iloy Abdurasul qizi***Namangan shahar 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi**boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ushbu fazilatni shakllantirish haqida so'z bo'radi*

Kalit so'zlar: *xalq og'zaki ijodiyoti, tarbiya, maqol, qo'shiq, ertak, doston, fazilat.*

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Yaxshi tarbiya ko'rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o'ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o'z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo'lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Yoshlarning ta'lim-tarbiya olishlariga mas'ul bo'lgan barcha o'rinlarda xalq pedagogikasi xazinasidan foydalanish hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarildi. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi quyi sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanilganda bu darajaga erishish engil amalga oshadi. O'rta umumiy ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bilim egallashga bo'lgan qiziqishlari, havasi asosida aqliy qobiliyatlari shakllantiriladi. Aqliy kamolotga uyg'un tarzda o'quvchilarning ma'naviy dunyosi boyitiladi. Axloqiy fazilatlar takomillashtiriladi. O'quvchilarda mehnatsevarlik, yuksak did, fahm-farosat, nafis his-tuyg'ular rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinflardayoq iqtisodiy va ekologik tushuncha, ko'nikma va malakalar tarkib topib boshlaydi. Ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quvchi-yoshlarning har tomonlama kamol topishiga e'tibor qaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bu murakkab jarayonlardan biri bo'lib, bola asosan, dastlabki ta'limni oila muhitida oladi. Tashqi muhitdan to'plangan bilimlar majmui esa ma'naviyat va axloqni yuzaga keltiradi. Har xil yoshdagi bolalar ulg'ayganlari sari tashqi muhitdagi katta yoshdagi kishilarning o'zini tutishi, xatti-harakatlariga tanqidiy qaraydigan bo'lib qoladilar. Shu yoshdagi bolalar o'zlari uchun taqlid qilishga arziydigan kishilarga taqlid qilishadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ham o'z ustoziga taqlid qila boshlaydi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga o'rnak bo'la oladigan kadr bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bolalar yoshligidan axloq-odobni o'zida shakllantirib boradi. Shu o'rinda buyuk bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy shunday deydi: "Har kimki ilm-hikmatni desa yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin. Yomon

ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin. Ilm va ahli ilmdan mol dunyosini ayamasin". O'quvchining qay darajada axloqli yoki bo'lmasam bilimli bo'lishi uning dastlabki tarbiyasi oila muhitiga bog'liq. Oilada yaxshi tarbiya ko'rgan bola ta'lim olishda ham qiyinchilikka uchramaydi, chunki u o'zida ta'lim axloq va ma'naviyat kabi tushunchalarni o'zida jamlagan bo'ladi. Axloq va ma'naviyat chuqur ichki o'zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma'naviyat individ mansub bo'lgan guruhlar axloqi ta'sirida yuzaga keladi, axloq esa, o'z navbatida, guruh a'zolari bo'lgan individlar ma'naviyatining o'zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi.

Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezon bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviyaxloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Bugungi ba'zi bir yoshlar ma'naviyatining qisman buzilayotganligi, ayrimlarining bizga mutlaqo yot bo'lgan urf-odat, madaniyatga berilib ketayotganligi, voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida turli bezorilik, jinoyat sodir etish hollari uchrab turishi barchamizni tashvishga solmoqda. Bunday yoshlar kelajakda Vatan ravnaqi uchun o'zlarining qanday hissalarini qo'sha oladilar, qanday kadr bo'lib yetishadilar. Vaholanki, mustaqil O'zbekistonning jahondagi rivojlangan mamlakatlar darajasida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy rivojlanishi ko'p jihatdan yosh avlodni kamol toptirishga, uni yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadigan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga yo'nalgan ijtimoiy faol, yuqori madaniyatli, malakali kadrlar bo'lib yetishishiga bog'liq. Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq. Har qanday ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rinib turibdiki biz pedogoglar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda xalqimizning boy madaniy merosidan foydalanar ekanmiz, avvalo, buyuk allomalarimizning ma'naviyat, axloq, tarbiya tushunchalariga bergan ta'riflariga alohida to'xtalib o'tishimiz zarur.

Boshlang'ich sinf, ma'naviyat, ma'rifat, his tuyg'u, diqqat. Boshlang'ich sinf o'quvchisida ma'naviyatni shakllantirish bo'yicha ishlarsamaradorligini oshirish vazifasi ular uchun chop etilayotgan barcha darslik va o'quv qo'llanmalarining matnini xalqimizning asrlar sinovidan o'tgan urf-odatlarini, axloqiy qarashlarini ifodalovchi qonun, qoidalar, pand-nasihatlar,

hadislar bilanizchil boyitib borishini taqozo etadi. Ayni paytda boshlang'ich sinflardan boshlab, o'quvchilarda jahondagi boshqa xalqlarning qadriyatlarini, urf-odatlariga ham hurmat va qiziqishni shakllantirish maqsadi ustuvorlik qilishi zarur. Shuning uchun ham darsliklarda boshqa xalqlarning tarixi, urf-odatlarini, qarashlarini fodalangan matnlari o'rin olishi, agar shunday materiallar bayon etilgan o'quv vositalari yaratilgan bo'lmasa, ularni o'quvchini o'zi tayyorlashga burchli bo'lish maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, mazkur xalqlarning taraqqiyot darajasini, yuksalishini tan olishga, ularning turmush tarzidagi ijobiy jihatlarni ijodiy o'zlashtirishga o'quvchilarni pastki sinflardan boshlab odatlantirib borish, bag'rikenglikni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya - yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi: birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezigulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rmishida aks etadigan asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e'tiqod, ma'naviy moyilliklar, histuyg'ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ularning ma'naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) o'quvchilarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash;
- 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash;
- 3) axloqiy xulq-atvor ko'rmaklarini shakllantirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: ma'naviy axloqiy tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi; ta'lim-tarbiya ishiga o'quvchi shaxsini hurmat qilgan holda yondashish; ma'naviy-axloqiy tarbiyani hayot va amaliyot bilan bog'lab olib borish; o'quvchilarning faolligi; jamoada tarbiyalash; tarbiyaviy ishning tizimliliigi va izchilligi; tarbiyaviy ishning ta'sirchanligi; oila, ta'lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi; o'quvchidagi ijobiy sifatlarga suyanish; o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev."Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2016,14 – bet
2. Insonni tarbiyalamoq– kelajakni tarbiyalamoq. Tursunova Saida Isakovna Termiz davlat Pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrasida o'qituvchisi <https://doi.org/10.5281/zenodo.6830668>
3. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T. «Sanostandart» nashriyoti, 2017-yil
4. J.Hasanboyev, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov (2011) Pedagogika.
5. A.Fitrat "Rahbari najot" asaridan. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi" 2- jild. T.: O'qituvchi, 1999, 56 - bet.
7. Yuldoshev Tojiddin Abdulkarimovich; Urozov Fakhriddin Isokovich; Shomurotov Ulug'bek Melikmurodovich. FORMATION OF A RELATIONSHIP OF RESPONSIBILITY TO THE FAMILY IN YOUNG PEOPLE. Euro. J. Hum. Edu. Adv. 2023, 4, 38-40.
8. Yuldashev Tojiddin Abdulkarimovich, & Shomurotov Ulug'bek Melikmurodovich. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. Global Scientific Review, 9, 1–4. Retrieved from <http://www.scienticreview.com/index.php/gsr/article/view/70>